



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No6(5)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 114 sahifa,  
16-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

*Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik*  
*Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik*  
*Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor*  
*Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*  
*Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor*  
*Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)*  
*Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)*  
*Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)*  
*Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*  
*Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)*  
*Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)*  
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*  
*Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor*  
*Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*  
*Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)*  
*Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*  
*Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti*  
*Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor*  
*Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)*  
*Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent*  
*Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori*  
*Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*  
*Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari*  
*Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
*Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Tinglovchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari .....	10
<i>Fazliddin Abdunabiyevich Abdurazaqov</i>	
Professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyatini xalqaro mezonlar asosida rivojlantirish yo'llari .....	15
<i>Maxmudov Qudratbek Shavkat o'g'li</i>	
Orfografik kompetensiyaning mohiyati va boshlang'ich sinflarda shakllanish bosqichlari .....	21
<i>Abduvaliyeva Nodira Alisherovna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda uch o'lchamli vizualizatsiyalarning boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati .....	25
<i>Nabijonova Feruza Valijon qizi</i>	
Loyiha texnologiyasi asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy tashabbuskorlikni rivojlantirish mazmuni .....	28
<i>O'rinova Nilufar Muxammadovna</i>	
Sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi .....	32
<i>Qilichova Billura Yorqinxuja qizi, Homidov H. K.</i>	
Kasbiy-kommunikativ madaniyat fenomenining pedagogik talqini va rivojlanish tendensiyalari .....	37
<i>Tashpulatova Nodira Olimjon qizi</i>	
Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv .....	41
<i>Umbarova Nasiba Xolboy qizi</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda shaxs nutqining shakllanishida psixolingvistikaning ahamiyati .....	44
<i>Ahmedov Shavkat Asadilloevich, Ataboev Navruz Ihombek o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi (PIRLS dasturi misolida) .....	47
<i>Abduraxmanova Charos Burxanovna</i>	
Lesson Planning in English Language Teaching at Technical Universities .....	51
<i>Aitbaeva Nursuliu Tairbekovna</i>	
Lingvistik intellekt asosida individual o'qitish yondashuvining samaradorligi .....	55
<i>Allanazarova Sadoqat Azimovna</i>	
Xorij tadqiqotlarida zamonaviy oila transformatsiyasida farzandlar taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik asoslari .....	59
<i>Bo'riyeva Mahbuba Shavkatovna</i>	
Теоретико-методологические подходы к изучению эмоциональных концептов в литературе: (на материале английских и немецких фразеологизмов) .....	63
<i>Сайёра Улашевна Тагаева, Азиза Анкаевна Уразкулова</i>	
The Importance of Forming a Schedule for High School Students .....	67
<i>D. T. Atabayeva, X. I. Abduraymova</i>	
Milliy cholg'u ansambllari orqali o'quvchilar musiqiy dunyoqarashini shakllantirish .....	70
<i>Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga yondashuvning texnologik xususiyatlari ...	75
<i>Jumanov Sherzod Saloyevich</i>	
Adabiyot darsliklari uchun yangi o'zbek adabiyoti namunalarini saralashning ilmiy-metodik asoslari .....	78
<i>Musaboyeva Zulfira Iqboljon qizi</i>	
Maktab geometriyasida ko'pyoqlilar mavzusini o'rganishning innovatsion usullari .....	83
<i>Pirlepesov Umrbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Generativ AI vositalarining mustaqil ta'lim jarayonidagi didaktik funksiyalari .....	86
<i>Qahramonova Xumora Qahramonovna</i>	
O'quvchi-sportchilar uchun individual mashg'ulot yuklamalarini avtomatik rejalashtirish va optimallashtirish imkoniyatini yaratish ahamiyati .....	91
<i>Qosimov Faxriddin Jo'raqulovich</i>	



Когнитивный диссонанс как социально-психологический феномен в контексте высшего образования: теоретический анализ .....	95
<b>Мансурова Гульмира Рафаэловна</b>	
Регуляторный произвол или необходимый порядок? Влияние новых регуляторных механизмов на свободу расследовательской журналистики .....	101
<b>Рауфова Озода</b>	
Qizlar tarbiyasida mahalla–oila–maktab hamkorligi mexanizmlari .....	105
<b>Choriyeva Dildora Ismat qizi</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini individuallashtirishning samaradorligi: kompetensiyaviy yondashuv asosida .....	109
<b>Tangriyev Abdulkarim Tovashevich</b>	

# SINF DAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA BADIY ASAR BILAN ISHLASHNING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDAGI METODIKASI

Qilichova Billura Yorqinxuja qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(boshlang'ich ta'lim) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Homidov H. K.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti  
"Boshlang'ich ta'lim nazariyasi" kafedrasini mudiri, p.f.f.d. (PhD)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ahamiyati, uning o'quvchilarning o'qish savodxonligi, kitobxonlik madaniyati hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida badiiy asarlarni tanlash, o'qish, tahlil qilish va ular yuzasidan ijodiy topshiriqlarni tashkil etishning metodik jihatlari ochib berilgan. Tadqiqot davomida badiiy asar bilan ishlash jarayonida interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, PIRLS tipidagi topshiriqlar hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda kommunikativ, axborot bilan ishlash, ijodiy va kitobxonlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslangan. Maqolada sinfdan tashqari o'qish darslarining o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi, badiiy-estetik didi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishdagi pedagogik imkoniyatlari ilmiy-metodik jihatdan tahlil etilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** kompetensiyaviy yondashuv, sinfdan tashqari o'qish, badiiy asar, kitobxonlik kompetensiyasi, o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, PIRLS, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, kitobxonlik madaniyati.

**Abstract:** This article analyzes the methodology of working with literary texts in extracurricular reading lessons in primary education based on a competency-based approach. The significance of the competency-based approach in the educational process and its role in developing students' reading literacy, reading culture, and independent thinking skills are highlighted. The methodological aspects of selecting, reading, analyzing literary works, and organizing creative tasks related to them in extracurricular reading activities are also discussed. The study substantiates that the use of interactive methods, problem-based situations, PIRLS-type tasks, and innovative pedagogical technologies in the process of working with literary texts contributes to the development of students' communicative, information-processing, creative, and reading competencies. Furthermore, the pedagogical potential of extracurricular reading lessons in enhancing students' personal development, aesthetic appreciation, and reading culture is scientifically and methodologically analyzed, and practical recommendations are proposed.

**Key words:** competency-based approach, extracurricular reading, literary text, reading competence, reading literacy, primary education, PIRLS, interactive methods, pedagogical technologies, reading culture.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается методика работы с художественными произведениями на занятиях по внеклассному чтению в начальной школе на основе компетентностного подхода. Освещается значение компетентностного подхода в образовательном процессе, а также его роль в развитии читательской грамотности, культуры чтения и навыков самостоятельного мышления учащихся. Раскрываются методические аспекты отбора, чтения и анализа художественных произведений, а также организации творческих заданий в процессе внеклассного чтения. В ходе исследования обосновано, что использование интерактивных методов, проблемных ситуаций, заданий типа PIRLS и инновационных педагогических технологий способствует формированию коммуникативной, информационной, творческой и читательской компетенций учащихся. В статье научно и методически проанализированы педагогические возможности занятий по внеклассному чтению в развитии личности школьников, их художественно-эстетического вкуса и культуры чтения, а также предложены практические рекомендации.

**Ключевые слова:** компетентностный подход, внеклассное чтение, художественное произведение, читательская компетентность, читательская грамотность, начальное образование, PIRLS, интерактивные методы, педагогические технологии, культура чтения.



## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshirish, balki ularda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish, axborot bilan ishlash va o'z bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mazkur yondashuv ta'lim jarayonini faqat bilim berishga yo'naltirish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarning hayotiy faoliyatda zarur bo'ladigan tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi [1]. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarda o'qish savodxonligi, kitobxonlik madaniyati va mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi [2].

Boshlang'ich ta'lim tizimida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish, mutolaa madaniyatini rivojlantirish, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirish hamda badiiy tafakkurini boyitishda muhim o'rin tutadi [3].

Sinfdan tashqari o'qish darslari orqali o'quvchilar turli janrdagi badiiy asarlar bilan tanishadilar, asar qahramonlarining xatti-harakatlarini tahlil qiladilar, voqealarga o'z munosabatlarini bildiradilar va hayotiy xulosalar chiqarishga o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning nutqiy rivojlanishi, estetik didining shakllanishi hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [4]. Shuning uchun sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish va badiiy asar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish pedagogika fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Jahon ta'lim amaliyotida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash dasturida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnни tushunish, tahlil qilish, talqin etish va baholash ko'nikmalari asosiy mezon sifatida baholanadi [5]. PIRLS tadqiqotlari natijalari o'quvchilarning o'qish savodxonligi nafaqat ta'lim sifati, balki ularning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatlarini ham belgilab berishini ko'rsatmoqda. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va ularni sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlariga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi [5].

So'nggi yillarda mamlakatimizda ham ta'lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat ta'lim standartlari va Milliy o'quv dasturlarida o'quvchilarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2]. Bu esa boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan metod va texnologiyalarni qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy talablarga moslashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlash jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog'lash, ularning mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Xususan, J. Raven, F. Weinert, D. Rychen va L. Salganiklarning ilmiy ishlarida kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda shaxs rivojlanishidagi ahamiyati yoritilgan [6]. Ularning tadqiqotlarida kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka, qadriyat va tajribalar integratsiyasiga asoslangan murakkab sifat sifatida talqin qilinadi.

O'zbekistonlik olimlardan B. Xodjaye, N. Muslimov, U. Tolipov va boshqalar kompetensiyaviy ta'limning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqib, uni milliy ta'lim tizimiga tatbiq etish masalalarini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [5].

Boshlang'ich ta'limda o'qish va sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasi K. Qosimova, S. Matchonov, T. G'afforova va boshqa metodist olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan [3: 4]. Mazkur tadqiqotlarda o'quvchilarning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, badiiy asarni idrok etish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari asoslab berilgan. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi yaxlit metodik tizimi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Xususan, badiiy asar tahlilini o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiyasi va o'qish savodxonligini rivojlantirish bilan integratsiyalash masalalari qo'shimcha ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Mazkur muammoning dolzarbligi, uning nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusini tanlashga asos bo'ldi. Tadqiqotning maqsadi sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini asoslashdan iborat. Tadqiqotning ilmiy yangiligi badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy modelini ishlab chiqish, PIRLS topshiriqlari elementlarini mazkur jarayonga integratsiya qilish hamda o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalarni taklif etish bilan belgilanadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasini ishlab chiqish va uning pedagogik samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika fanida keng qo'llaniladigan nazariy, empirik va statistik tahlil metodlaridan kompleks foydalanildi. Metodlarning o'zaro uyg'unligi tadqiqot natijalarining ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi hamda o'qish savodxonligini rivojlantirishga oid zamonaviy pedagogik qarashlar tashkil etdi. Mazkur yondashuv asosida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning bilimlarni egallashi bilan bir qatorda, ularni amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tadqiq etildi.

Empirik tadqiqot jarayonida kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida o'quvchilarning badiiy asarni idrok etish, tahlil qilish va baholash faoliyati o'rganildi. Suhbatlar yordamida o'quvchilarning kitobxonlik qiziqishlari, mutolaa faoliyati hamda badiiy asarga munosabati aniqlandi. Pedagogik tajriba davomida kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar amaliyotga joriy etilib, ularning samaradorligi baholandi.

Olingan natijalar qiyosiy va tavsifiy tahlil metodlari asosida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchligi nazariy qarashlar, tajriba-sinov ishlari va amaliy kuzatishlar asosida tasdiqlandi. Shu tariqa, sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan metodik modeli ishlab chiqildi va uning pedagogik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi ishlab chiqildi hamda uning o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligi tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, badiiy asar bilan ishlashni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning o'qish savodxonligi, mustaqil fikrlashi, kommunikativ faoliyati va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijasida sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida badiiy asar bilan ishlashning to'rt bosqichli metodik modeli ishlab chiqildi. Ushbu model motivatsion-tayyorgarlik, mazmunni idrok etish, tahliliy-faoliyat va reflektiv-baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi. Mazkur bosqichlarning izchil tashkil etilishi o'quvchilarning matn bilan ishlash jarayonida faol ishtirok etishini hamda kompetensiyalarining bosqichma-bosqich rivojlantirishini ta'minladi.

*Birinchi bosqich* – motivatsion-tayyorgarlik bosqichida o'quvchilarda o'qiladigan asarga nisbatan qiziqish uyg'otish va o'quv motivatsiyasini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun asar mavzusiga mos muammoli savollar, rasmlar, videolavhalar va hayotiy vaziyatlardan foydalanildi. Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, dars boshida tashkil etilgan motivatsion faoliyat o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning keyingi faoliyatga faol jalb etilishiga xizmat qildi. Natijada o'quvchilar matn mazmunini anglashga tayyor holda kirishdilar hamda o'qish jarayonida yuqori faollik namoyon etdilar.

*Ikkinchi bosqich* - mazmunni idrok etish bosqichida o'quvchilar badiiy asarni o'qish, tinglash va tushunish faoliyatlarini amalga oshirdilar. Ushbu jarayonda matn mazmunini anglash, voqealar ketma-ketligini aniqlash, qahramonlarning xarakter xususiyatlarini tushunish va asosiy g'oyani belgilashga qaratilgan topshiriqlardan foydalanildi. O'quvchilarning matn bilan ishlash jarayonidagi faolligi natijasida ular nafaqat asar mazmunini o'zlashtirdilar, balki matndagi yashirin ma'nolarni aniqlash va muallif g'oyasini tushunishga ham harakat qildilar. Bu esa o'qish savodxonligining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi.

*Uchinchi bosqich* - tahliliy-faoliyat bosqichida o'quvchilar badiiy asar ustida mustaqil va guruhli ishlash faoliyatlarini amalga oshirdilar. Ushbu bosqichda qahramonlarga tavsif berish, voqealarni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, matnga munosabat bildirish va muammoli vaziyatlarga yechim topishga yo'naltirilgan topshiriqlar qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur faoliyatlar o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, mantiqiy xulosa chiqarish va o'z fikrini asoslab berish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, kichik guruhlarda tashkil etilgan munozaralar o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi.

*To'rtinchi bosqich* - reflektiv-baholash bosqichida o'quvchilar o'qilgan asar yuzasidan o'z fikr va xulosalarini bildirdilar, qahramonlar faoliyatiga baho berdilar hamda asarning tarbiyaviy ahamiyatini aniqladilar. Ushbu bosqich davomida "Men qanday xulosa chiqardim?", "Qahramon o'rnida bo'lganimda qanday yo'l tutardim?" kabi



refleksiv topshiriqlardan foydalanildi. Natijada o'quvchilarning shaxsiy pozitsiyasini shakllantirish, voqea-hodisalarga tanqidiy yondashish va mustaqil baholash ko'nikmalari rivojlandi.

Tadqiqot davomida PIRLS xalqaro baholash dasturida qo'llaniladigan topshiriqlar elementlaridan foydalanish ham sinovdan o'tkazildi. Matndan axborot topish, xulosa chiqarish, matnni talqin qilish va baholashga qaratilgan topshiriqlar o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, ochiq turdagi savollar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini faollashtirib, matn yuzasidan chuqurroq mushohada yuritishiga imkon yaratdi. Bu esa o'quvchilarning nafaqat matn mazmunini tushunish, balki o'qilgan axborotni tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini ham rivojlantirdi.

Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlari o'quvchilarda bir qator muhim kompetensiyalarning rivojlanishiga xizmat qildi. Jumladan, kommunikativ kompetensiya o'quvchilarning fikr almashishi, munozaralarda ishtirok etishi va o'z nuqtai nazarini asosli ifodalashi orqali rivojlandi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi esa matndan kerakli ma'lumotlarni ajratib olish, tahlil qilish va umumlashtirish jarayonida shakllandi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasi o'quvchilarning o'qish savodxonligi, kitobxonlik kompetensiyasi va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatdi. Ishlab chiqilgan metodik model boshlang'ich sinf o'quvchilarining badiiy asarni chuqur idrok etishi, tahlil qilishi va baholashiga xizmat qilib, ta'lim samaradorligini oshirish uchun keng pedagogik imkoniyatlarni yaratadi.

Tadqiqot natijalari sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning o'qish savodxonligi, kitobxonlik madaniyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar kompetensiyaviy ta'limning asosiy g'oyasi - bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirish tamoyiliga mos keladi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan metodik model o'quvchilarning faqat matn mazmunini o'zlashtirishini emas, balki uni tahlil qilish, baholash va shaxsiy tajribasi bilan bog'lay olishini ham ta'minladi.

Tadqiqot natijalari J. Raven va F. Weinert tomonidan ilgari surilgan kompetensiya nazariyalarini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Ularning fikricha, kompetensiya bilim, ko'nikma va tajribalarni real faoliyatda qo'llash orqali namoyon bo'ladi<sup>[6]</sup>. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida samarali qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining metodik tayyorgarligi va dars jarayonini to'g'ri tashkil etishiga bog'liqligini ham ko'rsatdi. Demak, sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy modelini amaliyotga keng joriy etish o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish, o'qish savodxonligini oshirish hamda ta'lim sifatini yaxshilashning muhim omillaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligi, kitobxonlik madaniyati va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodik model badiiy asarni o'qish, tushunish, tahlil qilish va baholash jarayonlarini o'quvchilarning tayanch hamda fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish bilan uzviy bog'lash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, sinfdan tashqari o'qish mashg'ulotlarida motivatsion-tayyorgarlik, mazmuni idrok etish, tahliliy-faoliyat va refleksiv-baholash bosqichlarining izchil tashkil etilishi o'quvchilarning darsdagi faolligini oshirish, badiiy asarni chuqurroq anglash va o'z fikrini erkin ifodalashiga xizmat qildi. Ayniqsa, badiiy asar tahliliga muammoli savollar, guruhli ishlash usullari hamda PIRLS topshiriqlari elementlarining kiritilishi o'quvchilarning matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida o'quvchilarning kitobga bo'lgan qiziqishi ortgani, mustaqil mutolaa qilishga intilishi kuchaygani hamda o'qilgan asar yuzasidan xulosa chiqarish va baholash ko'nikmalari rivojlangani aniqlandi. Bu esa sinfdan tashqari o'qish darslarining nafaqat ta'limiy, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi imkoniyatlari ham yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sinfdan tashqari o'qish darslarida badiiy asar bilan ishlashning kompetensiyaviy yondashuv asosidagi metodikasini amaliyotga keng joriy etish o'quvchilarning kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirish, o'qish savodxonligini oshirish hamda boshlang'ich ta'lim sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar boshlang'ich sinf o'qituvchilari faoliyatida samarali foydalanilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. - London: H.K. Lewis, 2002.
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim fanlari bo'yicha Milliy o'quv dasturi. - Toshkent, 2023.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. - Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4. Matchonov S. Boshlang'ich sinflarda o'qish darslarini tashkil etish metodikasi. - Toshkent: Tafakkur, 2021.
5. Xodjayev B.X. Pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi. - Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017.
6. Weinert F.E. Concept of Competence: A Conceptual Clarification // Defining and Selecting Key Competencies. – Seattle: Hogrefe & Huber, 2001. - P. 45-65.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(5)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.